

Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalarining **“Yashil kelajak - barchamizning qo‘limizda!”** loyihasi doirasida tashkil etilgan aksiyadagi ishtiroki

BAYONNOMASI

16.09.2025-yil

TXVU

Navoiy viloyati, To‘dako‘l hududida joriy yilning 10-14 sentyabr kunlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan oromgoh o‘z faoliyatini olib bordi. Bu yerda turli hududlardan kelgan yoshlar hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining hududiy bo‘linmalari xodimlari birgalikda ishtirok etdilar. Tadbirga Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti Eko-klubi a‘zolari ham faol jalb etildilar. Aksiyaning asosiy maqsadi – atrof-muhitni asrash, chiqindilarni kamaytirish va aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish ekani ta’kidlandi.



Ishtirokchilar 5 ta jamoaga bo‘linib, To‘dako‘l sohili bo‘ylab tozalash ishlarini olib bordilar. Aksiya davomida jami 800 kilogrammga yaqin maishiy chiqindi yig‘ildi va maxsus poligonlarga chiqarib yuborildi. Talabalar mahalliy aholiga chiqindilarni saralash, plastmassa va boshqa qayta ishlanadigan materiallarni ajratib yig‘ishning ahamiyati haqida tushuntirish ishlari ham olib bordilar. Ushbu aksiya davomida talabalarga kelgusida bunday ekologik aksiyalarni muntazam ravishda o‘tkazish, universitet talabalari o‘rtasida chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, mahalliy aholi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, To‘dako‘l sohili bo‘yicha doimiy nazorat tizimini yaratish kabi qarorlar va tavsiyalar berildi. Aksiya nafaqat hududni tozalashga, balki yoshlar o‘rtasida tabiatga e’tibor, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qildi. Tadbir ishtirokchilari kelgusida ham ekologik tashabbuslarni kengaytirishga kelishib oldilar.

Dastur doirasida ekologik muammolarga oid g‘oyalar muhokama qilindi, Startaplar va ijtimoiy loyihalar ilgari surildi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yangi yechimlar ishlab chiqildi va tadbiq etildi.



To'dako'l sohilida o'tkazilgan ushbu ekologik aksiya nafaqat hududni 800 kilogrammga yaqin chiqindidan tozalashga, balki yoshlarning tabiatni asrash, ekologik mas'uliyatni his qilish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Tadbir davomida talabalar nafaqat amaliy ish olib bordilar, balki chiqindilarni to'g'ri saralash, ularni qayta ishlashning ahamiyati va atrof-muhitni muhofaza qilish madaniyatini keng jamoatchilikka targ'ib etdilar. Bu kabi tashabbuslar yoshlar o'rtasida ekologik ongni shakllantirish, toza va sog'lom muhitni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytirish hamda kelgusida muntazam ekologik loyihalarni yo'lga qo'yish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi



Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektori:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova -